

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
O'ZBEK TILSHUNOSLIGI KAFEDRASI**

**“ALISHER NAVOIY ASARLARIGA TUZILGAN LUG‘ATLAR HAQIDA”
MAVZUSIDA YOZGAN**

R E F E R A T

Bajardi: O'zbek filologiyasi fakulteti
3-kurs talabasi **Sulaymonov Bobur**

Qabul qildi: f.f.n. **O.Shukurov**

QARSHI – 2015

REJA:

1. ALISHER NAVOIY HAYOTI VA IJODI HAQIDA.
2. ALISHER NAVOIY IJODINING O'RGANILISHI.
3. ALISHER NAVOIY ASARLARIGA TUZILGAN LUG'ATLAR HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT.

1. Alisher Navoiyning hayoti va ijodi haqida.

Asl ismi Nizomiddin Mir Alisher. U Hirotida tugʻilib, shu yerda umrining asosiy qismini oʻtkazgan. Navoiyning otasi Gʻiyosiddin Bahodir temuriylar xonadoniga yaqin boʻlgan. Sheʼr zavqi va isteʼdodi erta uygʻongan. Bolalikdayoq Farididdin Attorning “Mantiqut-tayr” asarini yod olgan, Sharafiddin Ali Yazdiy nazariga tushgan, Mavlono Lutfiy yosh shoir isteʼdodiga yuqori baho bergan, Kamol Turbatiy eʼtirofini qozongan.

Husayn Boyqaro Xuroson taxtiga oʻtirgach (1469), Navoiy hayoti va ijodida yangi bosqich boshlanadi, muhrdorlik (1469) mansabiga, vazirlik (1472) va Astrobod hokimligi (1487)ga tayinlanadi. 1480-1500 yillar mobaynida oʻz mablagʻlari hisobidan bir necha madrasa, 40 rabot (safardagi yoʻlovchilar toʻxtab oʻtish joyi), 17 masjid, 10 xonaqoh, 9 hammom, 9 koʻprik, 20 ta hovuz qurdiradi. Husayn Boyqaro Alisher Navoiyga “muqarrabi hazrati sultoniyy” (“sulton hazratlarining eng yaqin kishisi”) degan unvonni beradi. Unga koʻra Navoiy davlatning barcha ishlariga aralasha olardi.

Navoiy ijodi ixlosmandlari uning sheʼrlarini yigʻib, “Ilk devon” (1464-65) tuzgan edilar, soʻngra “Badoyiul-bidoya” (“Goʻzallikning boshlanishi”), “Navodirun-nihoya” (“Nodirliklar nihoyasi”) nomli devonlar (1470-yillar) tartib berilgan. Lirik merosi umumiy hajmi 50000 misradan ortiq “Xazoyinul-maoniyy” nomli toʻrt devon (1491-1498)ga jamlangan. Navoiy sheʼriyatining mavzular doirasi keng, janrlar koʻlami (16) xilma-xil. Gʻazallari “oshiqona, orifona, rindona” (Shayxzoda) sifatlar bilan oʻrganiladi. Gʻazallarida insoniy muhabbat, ilohiy ishq bilan uygʻun holda ulugʻlanib, “majoz - haqiqat koʻprigi” aqidasiga amal qilingan. Alisher Navoiy sheʼriyatidagi zohiriy maʼno yangiliklari bilan birga botiniy sifatlarni ham oʻrgangandagina ularni idrok etishga erishish mumkin.

“Nazmul-javohir” (1485) Hazrat Alining “Nasrul-laoliy” asarining turkiy nazmga solingani boʻlib, 266 ruboiydan iborat bu asarda axloqiy-taʼlimiy qarashlar oʻz aksini topgan.

Alisher Navoiy ijodining yuksak cho`qqisi “Xamsa” asari (1483-85)dir, shoir birinchilardan bo`lib, turkiy tilda to`liq “Xamsa” yaratdi va turkiy tilda shunday ko`lamdor asar yozish mumkinligini isbotlab berdi.

“Xamsa” tarkibiga “Hayratul-abror”, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Sab`ai sayyor”, “Saddi Iskandariy” kabi dostonlar kiradi.

Navoiyning tasavvufiy qarashlari deyarli barcha asarlarining ruhiga singgan bo`lsa-da, maxsus “Lisonut-tayr” dostoni(1499)da, “Nasoyimul-muhabbat” manqabasi”(1495-96)da, “Tarixi anbiyo va hukamo”(1485-8), “Arbain”, “Munojot” singari asarlarida aks etgan.

2. Alisher Navoiy ijodining o'rganilishi.

Turkiy xalqlarning “shamsu-l-millat”i bo'lgan Nizomiddin Mir Alisher Navoiy jahon adabiyoti xazinasini o'zining hassos she'riyati, buyuk “Xamsa”si, fan sohalarining turli tarmoqlariga bag'ishlangan boy ilmiy merosi bilan boyitgan so'z san'atkoridir. O'z ijodiy merosida 26 mingdan ortiq lug'at boyligidan foydalangan bu buyuk daho mana besh asrdan oshibdiki, asarlaridagi chuqur falsafiy mushohadakorlik, ma'no-mohiyatning keng ko'lamligi va nazmiy merosidagi fasohat dengizining bepoyonligi bilan jahon ahlini hayratga solib keladi.

Dunyoda Alisher Navoiy kabi asarlari keng tarqalgan, jahonning deyarli har bir chekkasida kitoblarining nusxalari saqlanayotgan boshqa bir ijodkorni topish qiyin. Hazrat Navoiy hayotining so'nggi yillaridayoq uning asarlari tiliga lug'at ishlanganligi biz hozir navoiyshunoslik deb atayotgan sohaning ancha qadimiy ekanligini ko'rsatadi.

Shu ma'noda aytish mumkinki, Alisher Navoiyning faoliyati va merosining o'rganilish tarixi shoirning o'z davridan, zamondoshlari asarlaridan boshlanadi. Navoiyshunoslikning tadrijiy taraqqiyotini shartli ravishda quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin:

1. Navoiyning o'z asarlaridagi ma'lumotlar.

Alisher Navoiyning hayoti va ijodi haqida ilk ma'lumot beruvchi manba bu shubhasiz ulug' shoirning o'z asarlaridir. Shoir garchi o'z tarjimai holini maxsus yozib qoldirmagan bo'lsa-da, lekin Navoiyning deyarli barcha asarlarida uning shaxsiyati, ijodiy va ijtimoiy faoliyati haqida muayyan fikrlar keltiriladi. Xususan, “Vaqfiya”, “Munshaot” asarlarida ulug' shoirning ijtimoiy faoliyati aks etsa, “Majolisu-n-nafois”, “Xamsa”, “Munojot”, “Xazoyinu-l-maoniy” kabi asarlarida shaxsiy hayoti, “Muhokamatu-l-lug'atayn”, “Xamsatu-l-mutahayyirin”, “Holoti Sayyid Hasan Ardasher” kabi asarlarida shoir qalamiga mansub ba'zi asarlarning yozilish tarixi bilan bog'liq ma'lumotlarni uchratish mumkin. Navoiyshunos olim Sh.Sirojiddinov bu ma'lumotlarni quyidagi guruhlariga ajratishni tavsiya qiladi:

1. Yoshlik davri.

2. Murabbiylari.
3. Tutingan farzandlari.
4. Suhbatdoshlari.
5. Navoiy va Jomiy hamkorligi.
6. Navoiy va saroy.

2. Zamondoshlarining asarlarida keltirilgan ma'lumotlar. Abdurazzoq Samarqandiyning “Matla’i sa’dayn va majmai bahrayn” (“Ikki baxtli sayyoralarning kelib chiqishi va daryolarning qo’shilishi”) asari shoir haqida ma'lumot beruvchi ilk manbadir. Bu asar 1467-1470 yillar oralig’ida yaratilgan va bevosita hazrat Navoiyning nazorati ostida yakunlangan. Bu asardagi ma'lumotlar keyinchalik boshqa tarixiy asarlarda aynan takrorlanadi. O’sha davrning yana bir tarixchisi Muhammad ibn Xovandshoh Mirxondning “Ravzatu-s-safo” (“Soflik bog’i”) asarida ham Alisher Navoiy hayoti va faoliyatiga doir qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Asar 7 jildan iborat bo’lib, Navoiyning bevosita topshirig’i va homiyligida yaratilgan. “Ravzatu-s-safo” O’rta Sharq va Osiyo tarixiga bag’ishlangan bo’lib, Navoiy haqidagi ma'lumotlar asarning asosan 7-qismida – Sulton Husayn Boyqaro saltanati davri tavsifida uchraydi. Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkiratu-sh-shuaro” (“Shoirlar tazkirasi”) asari Alisher Navoiy nomi zikr etilgan ilk tazkiradir. Tazkirada besh asr davomida yashab faoliyat yuritgan 150 ga yaqin ijodkor haqida ma'lumot keltiriladi. Asar 1486 yilda yaratilgan bo’lib, muqaddima, 7 qism va xotimadan iborat. Hazrat Navoiy hayoti va faoliyatiga doir ma'lumot asarning xotima – muallifga zamondosh shoirlar haqidagi qismida keltirilgan.

Mu’iniddin Muhammad al-Zamjiy al-Isfizoriyning “Ravzatu-l-jinnot” (“Jannat bog’i”, 1492) asarida hazrat Navoiyning Bodgis viloyatining Chihil duxtaron qasabasida rabot qurdirgani, Farididdin Attor mozori ustida ravoqli imorat solgani haqidagi ma'lumot keltiriladi.

Abdurahmon Jomiyning “Bahoriston”, “Haft avrang” (“Yetti taxt”), “Nafahotu-l-uns” (“Do’stlik tarovati”) asarlarida ham Alisher Navoiy hayoti va ijodiy faoliyati bilan bog’liq ko’plab ma'lumotlar keltiriladi. Xususan, Sa’diy

SHeroziyning “Guliston” i ta’sirida yaratilgan “Bahoriston” asari 8 ravza (bob)dan iborat bo‘lib, 7-ravzada 39 shoirdan biri sifatida Alisher Navoiyga to‘xtalib o‘tiladi va uning komil axloqi ijodidan ham yuksakroq ekanligi ta’kidlanadi. Husayn Boyqaroning “Risola”sida ham hazrat Navoiyning turkiy tildagi ijodi, xususan, she’riyati hamda “Xamsa” asariga yuksak baho berilib, buyuk shoir “so‘z mulkining kishvaristoni, sohibqironi” deb ulug‘lanadi.

G‘iyosiddin Humomiddin Xondamirning “Xulosatu-l-axbor” (“Xabarlar xulosasi”, 1498-1499) va “Habibu-s-siyar” (“Do‘stlar siyrati”, 1515-1523) asarlarida Husayn Boyqaroning Xuroson taxtiga o‘tirishi va Alisher Navoiyning Hirotga qaytishidan boshlab, ulug‘ shoirning vafot etishigacha bo‘lgan davr oralig‘idagi voqealar bayon qilinadi. Tarixchining “Makorimu-l-axloq” asari esa Navoiyning yuksak axloqiga bag‘ishlangan maxsus risola bo‘lib, shoir tarjimai holiga doir muhim faktik ma’lumotlarning keltirilganligi bilan ahamiyatlidir. Zayniddin Vosifiy qalamiga mansub “Badoye’u-l-vaqoye” (“Go‘zal voqealar”) xotiralar to‘plamining to‘rt bobi (XIV-XVII) Alisher Navoiy shaxsiyatiga bag‘ishlangan. Unda hazratning fe’li-sajiyasi, zamondoshlari bilan ijodiy muloqotlari, Navoiy bilan bog‘liq turli qiziqarli voqealar haqida so‘z boradi.

Shuningdek, Abdulloh Hotifiyning “Layli va Majnun”, Husayn Voiz Koshifiyning “Javohiru-t-tafsir” (“Tafsir javohirotlari”, 1493-1494), Atoulloh Asiliyning “Ravzatu-l-ahbob” (“Do‘stlik bog‘i”), Atoulloh Mahmud Husayniyning “Badoye’u-s-sanoye” (“Badiiy san’atlar”), Shamsiddin Muhammad Badaxshiyning “Risolai muammo”, Husayn bin Muhammad Husayniyning “Risolai muammo” (1499), Ahliy SHeroziyning “Kulliyoti Ahliy SHeroziy”dagi muvashshah-qasidai masnu’si va boshqa ko‘plab asarlarda ham Alisher Navoiyning hayoti, ijodi va ijtimoiy faoliyati haqida muhim ma’lumotlar keltirilgan.

3. XVI-XIX asrlardagi tazkira, lug‘at, tarixiy va badiiy asarlar.

Alisher Navoiy haqidagi ma’lumotlar XV asrdan keyingi tazkira, tarixiy va badiiy asarlarda ham keltirib o‘tiladi. Xususan, Hasanxoja Nisoriyning “Muzakkiri ahbob” tazkirasi Navoiyning “Majolisu-n-nafois” tazkirasi asosida yaratilgan

boʻlib, tazkiraning birinchi bob, toʻrtinchi faslida “Amir Haydar Alisherning muqaddas yodi” sarlavhasi ostida buyuk shoirning “Xamsa”si va turkiy gʻazallarining umumiy hajmi, forsiy tildagi sheʼrlaridan parcha keltiriladi . Faxriy Hirotiyning “Latoifnoma” asari Alisher Navoiyning forsiy xalqlar orasida mashhur boʻlishida muhim ahamiyatga ega boʻlib, mazkur asar aslida “Majolisu-n-nafois”ning fors tiliga qilingan tarjimasidir. Asarning muallif tomonidan qoʻshimcha tarzda kiritilgan 9-majlisi bevosita hazrat Navoiyning hayoti va ijodiga bagʻishlangan. “Latoifnoma”da buyuk shoirning ota-bobolari, Sulton Husayn Boyqaro bilan bolalikdan davom etib kelgan doʻstlik rishtalari, Navoiyning Samarqanddagi hayoti, davlat arbobi sifatidagi faoliyati, mol-davlati hajmi, vafoti tafsilotlari bilan bogʻliq muhim maʼlumotlar keltirilgan. Faxriy buyuk shoir asarlaridan 14 tasi nomini ham sanab oʻtadi.

Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari Alisher Navoiy shaxsiyati va uning ijodiga berilgan bahoning oʻzgachaligi bilan alohida ajralib turadi. Asarda Navoiyning sulton Husayn Boyqaro bilan hammaktab ekanligi, Sulton Abu Saʼid Mirzo tomonidan surgun qilinganligi, Samarqandda Ahmad Hojibek homiyligi ostida yashaganligi, tabʼi nozikligi, olti masnaviy (“Xamsa” va “Lisonu-t-tayr”), toʻrt devon (“Xazoyinu-l-maoniy”) tartib berganligi, “Munshaot”ni tuzganligi haqida maʼlumotlar keltirilishi asnosida shoirning “Mezonu-l-avzon” va “Devoni Foni” asarlari xususida baʼzi tanqidiy fikrlar ham bildiriladi.

Mirzo Haydar Doʻgʻlotning “Tarixi Rashidiy” asari ikki jildidan iborat boʻlib, asosan 1541-1545 yillar oraligʻida yozib tugallangan. Asarda hazrat Navoiyning Sulton Husayn bilan bolalikdan doʻst ekanligi, keyinchalik uning saroyida xizmat qilganligi, fazlu hunar ahliga homiylik qilganligi, koʻplab imoratu binolar, masjidlar qurganligi, tabʼi nozikligi bilan bogʻliq fikrlar boshqa tarixiy manbalardagi maʼlumotlarga mos kelgani holda shoirning otasi uygʻur baxshi(kotib)laridan ekanligi va oddiy odam boʻlganligi haqidagi qarashlar tarixiy asosga ega emas deb aytish mumkin.

Lutf Alibek Ozarning “Otashkadai Ozariy”, Som Mirzo Safaviyning “Tuhfai Somiy”, Rizoqulixon Hidoyatning “Majmu’au-l-fusaho” (“Go’zal so’z egalarining to’plami”) kabi asarlarida ham hazrat Navoiy hayoti va ijodiy faoliyati bilan bog’liq fikrlar muayyan darajada bayon qilib berilgan.

Bu davrda Alisher Navoiy asarlarini chuqurroq o’rganish uchun maxsus lug’atlar ham tuzila boshlaydi. Navoiy hayotining so’nggi yillarida uning asarlari asosida “Badoye’u-l-lug’at” (tuzuvchi Tole’ al-Iymoniy al-Haraviy), bir oz keyinroq “Lug’ati Navoiy” yaratiladi. 1560 yilda Aloyi binni Muhibiy “Al lug’atun-Navoiyat va-l-istishhodatu-l-chig’atoyat” (“Navoiy lug’ati va chig’atoy tili dalillari”) lug’atini tuzadi. Shuningdek, bu davrda Navoiy asarlaridagi ko’pgina so’zlarni usmonli turk tilida tushuntirish maqsadida “Abushqa” lug’ati ham yaratiladi. XVIII asrda Mirzo Maxdiyxon tuzgan “Mabonu-l-lug’at” (“Lug’at poydevori”), XIX asrda Fath Ali Kojariyning “Lug’oti atrokiya” (“Turklar lug’ati”), Muhammad Xoksor tomonidan 1798 yilda tuzilgan “Muntaxabu-l-lug’at” (“Tanlangan lug’atlar”) hamda Shayx Sulaymon Buxoriyning “Lug’ati chig’atoyi va turki usmoniy” kabi asarlarida ham Alisher Navoiy ijodidan olingan parchalarga keng o’rin ajratiladi.

4. Navoiy ijodining ilmiy mezonlar asosida o’rganilishi.

O’tgan asrning 20-30 yillaridan boshlab yurtimizda Alisher Navoiy ijodini chinakam ilmiy mezonlar asosida o’rganishga kirishildi. Bu sohadagi dastlabki qadam sifatida Abdurauf Fitratning “Navoiyning forsiy shoirlig’i ham uning forsiy devoni to’g’risida” (“Maorif va o’qitg’uchi” jurn., 1925) va “Farhodu Shirin” dostoni to’g’risida” (“Alanga” jurn., 1930) maqolalarini ko’rsatish mumkin.

Butun sobiq Sho’rolar Ittifoqi miqyosida Navoiy tavalludining 500 yilligini keng nishonlash haqida qaror qabul qilinishi munosabati bilan “Xamsa”ning qisqartirilgan varianti (Sadriddin Ayniy, 1939), “Chor devon”, “Muhokamatu-l-lug’atayn”, “Mahbubu-l-qulub” asarlari nashr qilindi, turli tadqiqot va monografiyalar yaratildi, shoir asarlari rus, ukrain, tojik, ozarbayjon va boshqa ko’plab tillarga tarjima qilindi. Olim Sharafiddinov (“Alisher Navoiy”, 1939), M.Shayxzoda (“Genial shoir”, 1940), V.Abdullayev (“Navoiyning Samarqanddagi

hayoti va faoliyati haqida”, 1940) kabi olimlarning tadqiqotlari yaratildi; A.Borovkov, YE.E.Bertels, H.Olimjon, X.Zarif, O.Usmonov, M.Shayxzoda hamda boshqa ijodkor va olimlarning ilmiy maqolalarini o‘z ichiga olgan “Rodonachalnik uzbekskoy literaturi” (“O‘zbek adabiyotining asoschisi”, 1940) to‘plami e‘lon qilindi.

Sobiq Ittifoq hududida 1941 yilda II jahon urushi boshlanganligi sababli Alisher Navoiy yubileyi 1948 yil may oyida nishonlandi va shu munosabat bilan YE.E.Bertels (“Navoi. Opit tvorcheskoy biografii”), O.Sharafiddinov (“Alisher Navoiy. Hayoti va ijodiyoti”), S.Ayniy (“Alisher Navoiy”)larning ilmiy risolalari e‘lon qilindi.

XX asrning 60-yillaridan boshlab navoiyshunoslik yanada sermahsul ishlarni amalga oshirdi. “Xamsa”ning mukammal nashri (Porso Shamsiyev, 1960), “Xazoyinu-l-maoniy”ning akademik nashri (Hamid Sulaymonov, 1959-60) va Alisher Navoiy “Asarlar”i 15 tomligining e‘lon qilinishi navoiyshunoslikdagi muhim voqealardan bo‘ldi. O‘tgan asrning 90-yillarigacha Navoiy hayoti va ijodiy faoliyatiga bag‘ishlangan tadqiqotlar ro‘yxatining o‘zi alohida bir kitobni tashkil qiladi (Alisher Navoiy:1441-1501 yil. Adabiyotlar ko‘rsatkichi, 1991). 1987-2003 yillar davomida O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti hamda H.S.Sulaymonov nomidagi Qo‘lyozmalar instituti tomonidan Alisher Navoiyning 20 jildlik “Mukammal asarlar to‘plami” e‘lon qilindi . P.Shamsiyev, N.Mallayev, V.Zohidov, I.Sulton, H.Sulaymonov, A.Qayumov, S.G‘aniyeva, A.Rustamov, A.Hayitmetov, A.Abdug‘afurov, S.Erkinov, B.Valixo‘jayev, Y.Ishoqov, N.Komilov, R.Vohidov, M.Hakimov, L.Zohidov kabi olimlar navoiyshunoslik taraqqiyotiga alohida hissa qo‘shdilar. Mustaqillik yillaridan boshlab Alisher Navoiy ijodini yangicha tamoyillar asosida o‘rganish boshlandi. I.Haqqulovning “Tasavvuf va she‘riyat” (1991), “Navoiyga qaytish” (2007), S.Hasanovning “Navoiyning yetti tuhfası” (1991), M.Muhiddinovning “Ikki olam yog‘dusi” (1991), H.Qudratullayevning “Alisher Navoiyning adabiy-estetik qarashlari” (1991), A.Hayitmetovning “Navoiyxonlik suhbatlari” (1993), “Temuriylar davri o‘zbek adabiyoti” (1996),

A.Abdugʻafurovning “Buyuk beshlik saboqlari” (1995), R.Vohidovning “Alisher Navoiyning ijod maktabi” (1994), “Alisher Navoiy va ilohiyot” (1994), N.Komilovning “Tasavvuf” (1996-1999; 2009), S.Olimovning “Ishq, oshiq va maʼshuq” (1992), “Naqshband va Navoiy” (1996), N.Jumayevning “Satrlar silsilasidagi sehr” (1996), A.Hojiahmedovning “Navoiy aruzi nafosati” (2006), A.Qayumovning oʻn ikki jildlik “Asarlar” (2010), “Dilkusho takrorlar va ruhafzo ashʼorlar” (2011), Alibek Rustamovning “Hazrati Navoiyning eʼtiqodi”, (2010), Sh.Sirojiddinovning “Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy tipologik, tekstologik tahlili” (2011), N.Komilovning “Maʼnolar olamiga safar” (Alisher Navoiy gʻazallariga sharhlar, 2012) kabi tadqiqotlari; M.Hamidovanning “Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy” dostonining ilmiy-tanqidiy matni va matniy tadqiqi” (1994), M.Muhiddinovning “Alisher Navoiy va uning salafarlari ijodida inson konsepsiyasi”(“Xamsa”larning birinchi dostoni asosida, 1995), Q.Ergashevning “Oʻzbek nasrida insho” (Navoiyning “Munshaot”i misolida, 1996), M.Akbarovanning “Alisher Navoiy gʻazallarida qofiya” (1997), Sh.Sirojiddinovning “Alisher Navoiy hayoti va faoliyatiga oid XV-XIX asrlarda yaratilgan fors-tojik manbalari” (qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlil, 1998), A.Erkinovning “Alisher Navoiy “Xamsa”si talqinining XV-XX asr manbalari” (1998), K.Mullaxoʻjayevaning “Alisher Navoiy gʻazaliyotida tasavvufiy timsol va badiiy sanʼatlar uygʻunligi: (“Badoyeʼ ul-bidoya” devoni misolida, 2005), S.Oʻtanovanning “Alisher Navoiy gʻazaliyotida rang simvolikasi” (2007), Z.Mamadaliyevaning “Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostonidagi ramziy obrazlar tizimi” (2011) kabi dissertatsion ishlari shular jumlasidandir.

Alisher Navoiy “Xamsa”si tarkibiga kiruvchi besh doston 2006 yilda asl matni va mukammal nasriy bayoni bilan Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi tomonidan lotin yozuvida nashr etildi. Alisher Navoiy tavalludining 570 yilligi munosabati bilan shoir asarlarining 10 jildligi eʼlon qilindi . Shuningdek, “Xazoyinu-l-maoniy” kulliyoti tarkibiga kiruvchi 4 devon ham nashrdan chiqdi.

5. Navoiy ijodining G'arbda o'rganilishi. Navoiy asarlari XVI asrlardayoq Yevropada ma'lum edi. 1557 yilda italyan tilida Venetsiyada nashr etilgan tabrizlik arman yozuvchisi Xristofor Tabriziyning "Sarandib shohining uch yosh o'g'loni ziyorati" asarining ikkinchi qismida Navoiyning "Sab' ai sayyor" dostonidan olingan Bahrom va Dilorom sarguzashti bayon qilinadi. Shuningdek, XVII asr gruzin shoiri Sitsishvili Navoiyning "Sab' ai sayyor" dostonini ijodiy tarjima qilib, "Yetti go'zal" dostonini yaratadi.

1697- yilda fransuz olimi Artoleme d'Yerbelo "Sharq kutubxonasi" nomli ensiklopediyada Navoiy tarjimai holi va asarlari nomini keltirsa, sharqshunos Silvestre de Sasi (1758-1838) o'z tadqiqotlarida Alisher Navoiyning shoir va davlat arbobi sifatidagi faoliyatiga to'xtalib o'tadi.

XIX asrga kelib, Yevropada Alisher Navoiy asarlari va uning asarlari asosida tuzilgan lug'atlarni nashr etish ishlari boshlanadi. Fransuz sharqshunosi Katrmer 1841 yilda Parijda Navoiyning "Muhokamatu-l-lug'atayn" va "Tarixi muluki ajam" asarlarini nashr ettiradi. Rus olimi I.N.Beryozin o'zining "Turk xrestomatiyasi" nomli kitobiga shoir asarlaridan parchalar kiritadi. Rus sharqshunosi V.V.Velyaminov 1868 yilda Aloyi binni Muhibiyning "Al lug'atu-n-Navoiyat va-l-istishhodatu-l-chig'atoiyat" ("Navoiy lug'ati va chig'atoy tili dalillari") lug'atini Sankt-Peterburgda nashr ettiradi. Fransuz sharqshunosi Pave de Kurteyl esa Navoiy asarlaridan foydalanib, lug'at tuzadi.

G'arbda Alisher Navoiyning hayoti va ijodiy faoliyatini ilmiy aspektda o'rganish XIX asrdan boshlangan deb aytish mumkin. 1818 yilda nemis olimi X.Purgshtall "Navoiyga oid bitiklar" asarini yaratib, unda Alisher Navoiyning nasl-nasabi, shoirlik, davlat arbobi va bunyodkorlik ishlariga to'xtalib o'tadi. Rus sharqshunosi P.Savelyev 1835 yilda shoir ijodiga bag'ishlab maxsus "Alisher Navoiy" nomli maqola yozadi.

1856- yilda M.Nikitskiyning "Emir' Nizam-Ed-Din'-Ali Shir'. Gosudarstvennom i literaturnom yego znachenii" ("Amir Nizomiddin Alisher: davlat arbobi va shoir sifatida") nomli shoir ijodiga bag'ishlangan ilk magistrlik dissertatsiyasi vujudga keladi. M.Nikitskiy Navoiyning hayoti va faoliyatini ancha

to'liq o'rgangani, uning shoir, olim va davlat arbobi sifatidagi faoliyatiga yuqori baho bergani holda Sharq mumtoz adabiyotidagi ijodiy an'analarni anglab yetmagani uchun Alisher Navoiyni "fors-tojik adabiyotining tarjimoni" deb e'lon qiladi.

Aynan shu tarzdagi g'ayriilmiy qarashlar fransuz sharqshunoslari M.Belen ("Alisher Navoiy", 1868), E.Bloshe "Milliy kutubxonada saqlanayotgan turkiy qo'lyozmalar katalogi", L.Buva ("Temuriylar davri sivilizatsiyasidan lavhalar", 1926; "Mo'g'ul imperiyasi", 1927), ingliz sharqshunosi E.Braun ("Tatar xonliklari davridagi fors adabiyoti tarixi", 1920), rus sharqshunosi V.Bartoldlarning tadqiqot va ilmiy maqolalarida davom ettirildi. Xususan, V.Bartold o'zining "Mir-Ali-Shir i politicheskaya jizn" ("Mir Ali Sher va siyosiy hayot") maqolasida Navoiyning davlat arbobi sifatidagi faoliyatiga ijobiy baho beradi, lekin uning adabiy merosi mohiyatini anglab yetmaydi. Olim mazkur maqolada: "Alisher Navoiy o'zining devonlarida va boshqa ko'plab badiiy asarlarida faqatgina forsiy shoirlarning taqlidchisi sifatida namoyon bo'ladi", – deb yozar ekan, masalaga adabiyotshunos emas, balki tarixchining nigohi bilan yondashadi va har bir detalda aniqlik, mantiq, reallik va konkret voqelikni ko'rmoqchi bo'ladi.

Aslida esa Musulmon Sharqida ijodkorning salohiyati G'arb adabiyotidagidan farqli ravishda yangi syujet yaratishiga qarab emas, balki an'anaviy voqelik, mavzu, qahramonlar doirasida yangi fikr ayta olish iqtidoriga qarab belgilangan. Aynan mana shu an'anaviylikni anglay olmaslik yuqoridagi olimlarning Alisher Navoiy ijodiga noxolis baho berishlariga olib kelgan. Nihoyat sharqshunos olim YE.E.Bertels Alisher Navoiy va Farididdin Attor dostonlarini qiyosiy o'rganish orqali ("Navoi i Attar") hazrat Navoiyning original shoir ekanligini isbotlaydi. Shu tariqa Alisher Navoiy ijodini xorijda keng ilmiy aspektda xolis o'rganish ishlari boshlab yuboriladi.

Nemis olimi A.Kurellaning "Buyuk shoirning qayta kashf qilinishi" nomli tadqiqoti g'arb navoiyshunosligida yangi bosqichni boshlab berdi. Ushbu tadqiqotdan so'ng G'arbda Navoiy shaxsiyati endi ikki yo'nalishda: ham buyuk ijodkor, ham davlat arbobi sifatida tadqiq qilina boshlandi. Inglizxabon olimlardan

M.Sabteln, V.Feldmen, D.Genchturk, D.Devin, K.Adaxl, G.Dikning ilmiy izlanishlari va tarjima borasidagi faoliyatlari, Berlin shahrida Alisher Navoiy ijodiga bag'ishlangan simpoziumning tashkil qilinishi va unda navoiyshunos olimlar va shoir asarlari tarjimonlari B.Haynkele, K.Shuning, Y.Paul, M.Kirhner, Z.Klaynmihel, E.Taube va boshqalarning turli mavzulardagi ma'ruzalari g'arb navoiyshunosligining tobora rivojlanib borayotganligidan dalolatdir . Bularning barchasi bugungi globallashuv jarayonida Alisher Navoiy ijodi va shaxsiga butun dunyoda qiziqish va ehtiyojning ortib borayotganini ko'rsatadi.

3. Alisher Navoiy asarlariga tuzilgan lugʻatlar haqida.

Oʻzbek lugʻati tarixi Mahmud Koshgʻariyning «Devonu lugʻotit turk» asaridan boshlangan deb aytish mumkin. Ushbu lugʻat faqat soʻzlar va ularning maʼnolarini tavsiflab qolmasdan, turkiy xalqlar tarixi, urf-odatlar, geografik joylashuvi kabi keng maʼlumotlar manbai hisoblanadi. Shu bilan birga u dastlabki ikki tilli (turkiycha-arabcha) lugʻatlardandir.

Alisher Navoiy asarlari yuzasidan bunday uzoq va juda boy leksikografik anʼananing mavjud boʻlishi juda nodir hodisadir. Hatto, rang-barang lugʻatlarga boy boʻlgan arab va fors leksikografiyasi tarixida xam maʼlum adib yoki bir necha adiblar asarlari asosida tuzilgan bunday lugʻatlar mavjud emas. Navoiy asarlariga tuzilgan lugʻatlar sirasiga quyidagi lugʻatlar kiradi:

1. Tole Imoni Hiraviyning "Badoye ul-lugʻat" (XV asr) nomli chigʻatoycha-forscha lugʻati,
2. "Abushqa" nomi bilan mashhur boʻlgan chigʻatoycha-turkcha izohli lugʻat (XVI asr, Turkiya),
3. Muhammad Yoqub Chingiyning "Kelurnoma" deb nomlangan oʻzbekcha-forscha lugʻati (XVII asr),
4. Muhammad Rizo Xoksorning "Muntaxab ul-lugʻot" nomli izohli lugʻati (XVIII asr),
5. Mirzo Mahdiyxonning "Sangloh" nomli chigʻatoycha-forscha lugʻati (XVIII asr) ("Lugʻati atrakiya", "Xulosayi Abbosi"lar Sangloh"ning qisqa varianti)
6. Sulaymon Buxoriyning "Lugʻati chigʻatoy va turki usmoniy" (XIX asr) («Chigʻatoycha-turkcha lugʻat») kabi va boshqa lugʻatlar shu jumladandir.

«Abushqa»

Bundan 450 yil muqaddam ilgari tuzilgan birinchi oʻzbek tilining izohli lugʻati fanda «Abushqa» nomi bilan atalgan yodgorlik katta ahamiyatga ega. Ushbu lugʻatning fanda oʻndan ortiq nusxalari maʼlum boʻlib, ularning eng qadimgi nusxalari chet el xazinalarida.

Lug‘atning 1552 yilda kitobat qilingan Vena nusxasidan foto ko‘chirma olingan edi. Endi Tehron nusxasidan ham ko‘chirma olindi.

Fotonusxadan ma‘lum bo‘ladiki, qo‘lyozma to‘liq va yaxshi saqlangan. Lug‘at yirik nasta‘liq xatida yozilgan. Hajmi 201 varaq, ya‘ni 402 betdan iborat. Har bir betda to‘rttadan sakkiztagacha so‘z misollar bilan izohlangan. Lug‘atning bu nusxasi Tehrondagi Malak kutubxonasida «Farhangi devoni Alisher Navoiy» nomli qo‘lyozma tarkibida saqlanmoqda. Hozirgacha bu lug‘at muallifi noma‘lum edi. Vena va Tehron nusxalarini solishtirish natijasida uning muallifi Turk olimi Mustafo Binni Sodiq ekanligi ma‘lum bo‘ldi. Ammo uning tartib berilgan yili hali ham noma‘lum. Hozircha lug‘atning bizga ma‘lum eng qadimgi Vena shahridagi nusxasi 1552 yilgi tarixga ega.

Lug‘atda so‘z ma‘nosi, asosan, 2 xil usulda ochib berilgan. Birinchi usulda lug‘atshunos so‘z ma‘nosini bir so‘z bilan lo‘nda ifodalaydi. Chunonchi ko‘kumtul so‘zi ko‘m - ko‘k deb izohlangan. II usulda so‘z ma‘nosi tushuntirish yo‘li bilan ochib berilgan:

qirov - qirag‘u demakdurki, savuq ayyomda gecha ila havodan yera dushar, yeri ag‘arduri.

«Badoyi - al - lug‘at»

Alisher Navoiy asarlariga tuzilgan birinchi qomus «Badoyi - al - lug‘at» hisoblanadi. U Husayn Boyqaro farmoni bilan 1500 yillarda tuzilgan. Hozircha lug‘atning ikki nusxasi ma‘lum. Biri Eronda, Sipohsolar kutubxonasida, ikkinchisi Sankt - Peterburg xalq kutubxonasida saqlanmoqda. Lug‘atning Sankt - Peterburg shahridagi qo‘lyozmasi 1750 yillarda ko‘chirilgan bo‘lib, 1960 yilda A.K.Borovkov tomonidan nashr qilingan.

Olim kitobni nashrga tayyorlashda eng muhim so‘zlarning fonetik tuzilishiga oid nodir ma‘lumotlarni negadir tushirib qoldirgan. Natijada lug‘at boshqa nodir yodgorliklar qatori oddiy transkripsiyada berilgan. Ushbu lug‘atda XV asr vokalizmi va konsonantizmi - eski o‘zbek alifbosi maxsus atamalar orqali yaxshi ochib berilgan. Lug‘at muallifi Toli Imomiy Hiraviy eski o‘zbek tilidagi unli

tovushlarni ko'rsatish uchun butun mahoratini ishga solgan. Natijada u tilda mavjud bo'lgan 14 unli tovush 26 ta undoshning har birini aniq ko'rsatgan aks etgan.

Lug'atshunos lug'at tuzishda o'rta asr qomuschiligining eng yaxshi an'alaridan foydalangan. Har bir so'z haqida uch xil ma'lumot qoldirilgan: 1) so'zning tovush tuzilishi; 2) uning ma'nosi; 3) grammatik xususiyati. Grammatik izohdan sung etimologik izoh o'rin oladi. Masalan, "Badoyi al-lug'at" da adash so'zining etimologiyasi haqida gapirib, aslida addash bo'lgani, keyinchalik bir "dol" tushib qolganini ta'kidlaydi.

«Lug'ati Navoiy»

1990 yilda navoiyshunos olimi S.G'aniyeva Tehron universiteti markaziy kutubxonasi bilan tanishish jarayonida fanda ma'lum bo'lmagan o'zbekcha - turkcha («Lug'ati Navoiy») qo'lyozmani aniqladi. Alisher Navoiy asarlari bo'yicha tuzilgan bu lug'at 70 betdan iborat bo'lib, chiroyli nasta'liq xatida bitilgan. Lug'at oxirida tuzuvchining ismi sharifi va asar tarixi aniq ko'rsatilgan: Rajab ibni Muhib Ali. Shomlu. tarixi 1599 yil.

Ushbu lug'at arab - fors alifbosi bo'yicha tuzilgan bo'lib, unda Alisher Navoiy asarlaridagi mingga yaqin so'z turkcha, ixcham, sodda izohlangan.

Lug'at 24 harfga bo'lingan. Har bir harfga 20 tacha misol keltirilgan.

«Lug'ati Turkiy»

Boburiylar Hindistonda hukmronlik qilar ekanlar, o'z ona tili – o'zbek tillarini imkon boricha saqlab qolishga harakat qildilar. Ular o'z ona tillarini unutib yubormaslik maqsadida olimlarga turli qo'llanma va lug'atlar tuzishni buyurdilar.

Shoh Jahonning o'g'li Avrangzeb buyrug'i bilan Fazlullaxon Barlos tomonidan tuzilgan «Lug'ati Turkiy» ham Britaniya muzeyida saqlanmoqda.

Fazlullaxon Barlos lug'atdagi so'zlarni joylashtirishda o'zbek tilining ichki xususiyatlari kelib chiqadi. Fe'llarni 13 harfga, ismlarni 18 harfga bo'ladi. Arab -

fors tillariga xos je, ze, itqi, izg'i, zod, sod kabi harflar bilan boshlanuvchi soʻzlarga misollar berilmagan.

Lugʻatning I qismida oʻzbek tilidagi soʻz yasovchi va soʻz oʻzgartiruvchi qoʻshimchalar haqida umumiy maʼlumot, II qismida eski oʻzbek tilida koʻp ishlatilgan feʼllar, III qismida ot turkumidagi soʻzlar, IV qismida qabila, meva, gʻalla, hasharot, hayvonot olamiga oid soʻzlar guruh - guruh qilib berilgan.

“Kelurnoma”

Yuqorida taʼkidlanganidek, Boburiylar davrida turkiy tilini oʻrganishga katta ehtiyoj turli lugʻatlarning yaratilishiga sababchi boʻldi. Ana shunday ehtiyoj asosida Abu Muzaffar Muhitdin Avrangzeb (1658-1707 yillar) saroyida xizmat qilgan Muhammad Yoqub Chingiy "Kelurnoma" asarini yaratdi.

Lugʻat 15 bobdan va 332 fasldan iborat. Ulardan 14 bobi arab alfaviti asosida joylashtirilgan 400 dan ortiq feʼllarni izohlashgan bagʻishlanadi.

Unda oʻn toʻrt bobda 400 dan ortiq feʼlning yuqoridagi kabi turli xil shakllar paradigmasi beriladi. Natijada uya lugʻatning namunasi vujudga keladi.

Lugʻatning oxirgi bobi mavzuviiy-ideografik lugʻatning ilk namunasi.

«Sanglo»

Alisher Navoiy asarlari boʻyicha yozilgan lugʻatlarning eng kattasi «Sanglo»dir. Muallifi turkiy xalqlarning afshar urugʻidan chiqqan astrobodlik Mirza Mahdixon. U Eron shohi Nodirshohning kotibi edi. Lugʻat tuzishdan maqsadi shoir asarlarida uchraydigan qiyin soʻzlar maʼnosini forsiy zabon xalqlarga ochib berish edi. Shuning uchun u lugʻatni «Sanglo», yaʼni toshli yer, toshloq deb atadi. Lugʻat 1759 - 60 yillarda yozib tugallangan. Hozircha lugʻatning uch nusxasi aniqlangan, ular Angliya qoʻlyozma xazinalarida saqlanadi. 1960 yili mashhur ingliz olimi Djerard Kloson ushbu lugʻatni turli koʻrsatkich, sharh va izohlar bilan Londonda nashr qildi. Lugʻatshunos soʻz maʼnolarini ochish uchun asosan Alisher Navoiyning poetik asarlariga murojaat qiladi. Ayrim paytlarda qoʻshimcha ravishda Bobur, Husayn Boyqaro, Lutfiy kabi shoirlar ijodidan ham misollar kelti-

riladi. Ushbu lugʻatning boshqa mumtoz lugʻatlardan farqi shuki, «Sangloh»da birinchi marta nasriy asarlardan ham misollar keltirildi.

Lugʻatda Alisher Navoiy asarlarida uchrovchi juda koʻp nodir soʻzlar maʼnosi ochib berilgan. Bunday soʻzlar boshqa lugʻatlarda uchramaydi. Shulardan biri qadam tashlash, yurish maʼnosidagi mangish soʻzidir. Bu soʻz maʼnosi Mahdixon tarafidan quyidagicha izohlanadi: mangish – nun ustida sukun, forsiy «k» (yaʼni «g») kasrali, maʼnosi xirom va raftor qadam tashlamoq, chunonchi, «Layli va Majnun»da uchraydi:

Bir - bir mangishda yuz latofat,

Yoʻq yoʻqki sochib jahonga ofat.

Mahdixon lugʻatning fonetik tuzilishini bayon qilish chogʻida XVIII asr Astrobod oʻzbeklarining tili haqida noyob maʼlumotlar qoldirgan. Lugʻat maʼlumotlari bu davr tilida 9 ta unli (ulardan 6 tasi fonologik ahamiyatga ega), 28 ta undosh tovush boʻlganligi haqida gapiradi.

Muallif soʻz maʼnolarini izohlar ekan, ularning koʻchma maʼnolarini alohida qayd qilib oʻtadi. Chunonchi, etak soʻzini izohlar ekan, uning asosiy maʼnosi forsha doman ekanligini koʻrsatadi, shu bilan uning majozan togʻ etagi maʼnosini anglatishini quyidagicha yozadi:

etak - (forsha) maʼnosi doman, arabcha zayl, majozan togʻning etagi.

"Sangloh" lugʻatida moʻgʻul, fors, arab va boshqa tillardan oʻzlashgan 970 ga yaqin leksik birliklar mavjud. "Sangloh" lugʻatida muallifning oʻzi tomonidan moʻgʻulcha deb belgilangan soʻzlar yuztadan oshadi. Lugʻatda feʼllar boshqa soʻz turkumlariga nisbatan koʻprok sarlavga soʻzga chiqarilgan.

Navoiy asarlariga tuzilgan lugʻatlar ichida "Badoiy al-lugʻat" va "Sangloh" lugʻat tuzish tamoyilining ancha mukammalligi bilan ajralib turadi. Rus tilshunosligida XX asrning ikkinchi yarmida A.Tixonov tomonidan ishlab chikilgan soʻzlarni uyalarga birlashtirish asosida lugʻat tuzish tamoyillari oʻzbek leksikograflari tomonidan XV asrdayoq ishlangan va bu tamoyillar asosida lugʻatlar tuzilgan.

Yuqoridagilardan tashqari Navoiy asarlariga tuzilgan oʻnlab lugʻatlar bor. Ular jumlasiga «Kitobi lugʻati atrokiya», «Farhangi Hazrati Alisher mullaqab ba al Navoiy» kabi lugʻatlar ham kiradi (Umarov E.A. Eski oʻzbek lugʻatlari. Toshkent, 1992).

Alisher Navoiy va boshqa mumtoz shoirlarning asarlarini oʻqish uchun maxsus lugʻat zarur, chunki eski oʻzbek tili hozirgi oʻzbek adabiy tilidan lugʻat tarkibi jihatidan ham, grammatik qurilishi jihatidan ham sezilarli farq qiladi. Bunday lugʻatlar tuzilgan va nashr etilgan ham. Masalan, P. Shamsiyev va S. Ibrohimovlarning "Navoiy asarlari lugʻati" (Toshkent, 1972). Bu lugʻat birinchi marta 1953 yilda "Oʻzbek klassik adabiyoti asarlarini oʻqish uchun qisqacha lugʻat" nomi bilan nashr etilgan edi. 1983-85 yillarda esa prof. E.I.Fozilov rahbarligida 4 jildli Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lugʻati nashr etilgan.

Ushbu maʼlumotlardan koʻrinib turibdiki, oʻzbek lugʻatchiligi uzoq tarix va boy anʼanaga ega.

ADABIYOTLAR

1. Badoyi' ul-bidoya (birinchi tom).
2. Navodir un-nihoya (ikkinchi tom).
3. Xazoyin ul-maoniy. G'aroyib us-sig'ar (uchinchi tom).
4. Xazoyin ul-maoniy. Navodir ush-shabob (to'rtinchi tom).
5. Xazoyin ul-maoniy. Badoye' ul-vasat (beshinchi tom).
6. Xazoyin ul-maoniy. Favoyid ul-kibra (oltinchi tom).
7. Xamsa: Hayratul-abror (yettinchi tom).
8. Xamsa: Farhod va Shirin (sakkizinchi tom).
9. Xamsa: Layli va Majnun (to'qqizinchi tom).
10. Xamsa: Sab'ai sayyor (o'ninchi tom).
11. Xamsa: Saddi Iskandariy (o'n birinchi tom).
12. Lisonut-tayr (o'n ikkinchi tom).
13. Majolis un-nafois (o'n uchinchi tom).
14. Mahbub ul-qulub. Munshaot. Vaqfiya (o'n to'rtinchi tom).
15. Xamsat ul-mutahayyirin. Holoti Sayyid Hasan Ardasher. Holoti Pahlavon Muhammad. Nazm ul-javohir (o'n beshinchi tom).
16. Muhokamat ul-lug'atayn. Mezon ul-avzon. Tarixi anbiyo va hukamo. Tarixi muluki ajam. Arba'in. Siroj ul-muslimin. Munojot. Risolai tiyr andoxtan (o'n oltinchi tom).
17. Nasoyim ul-muhabbat (o'n yettinchi tom).
18. Devoni Foniyy (o'n sakkizinchi tom).
19. Devoni Foniyy_davomi (o'n to'qqizinchi tom).
20. Devoni Foniyy_davomi Qasidalar. Mufradot. Ilovalar (yigirmanchi tom).

MAVZUNI MUSTAHKAMLASH

1. Alisher Navoiy - shoir va xamsanavis.
2. Alisher Navoiy - adabiyotshunos - munaqqid.
3. Alisher Navoiy - tarixchi (muarrix).
4. Alisher Navoiy - til nazariyotchisi.
5. Alisher Navoiy - tarjimon (mutarjim).
6. Alisher Navoiy - islom dini targ'ibotchisi.
7. Alisher Navoiy - sozanda - bastakor.
8. Alisher Navoiy - bunyodkor - me'mor.
9. Alisher Navoiy - rassom - musavvir.
10. Alisher Navoiy - muhrdor hamda vazir.
11. Alisher Navoiy - davlat va jamoat arbobi.
12. Alisher Navoiy - sulhparvar elchi.
13. Alisher Navoiy - yirik tadbirkor.
14. Alisher Navoiy - valine'mat, qiblagoh.
15. Alisher Navoiy - mazlumlarni g'amxo'ri.
16. Alisher Navoiy - yaxshilik va ezgulik kurashchisi.

Savol va topshiriqlar:

1. Alisher Navoiy ijodiga uning hayotlik chogʻidayoq qiziqish paydo boʻlganining sababi nimada deb oʻylaysiz?
2. Navoiyshunoslikning tadrijiy taraqqiyotini qanday bosqichlarga boʻlib oʻrganish mumkin?
3. Hazrat Navoiyning qaysi asarlarida oʻzi bilan bogʻliq maʼlumotlar bayon etilgan?
4. Navoiy haqida zamondoshlari tomonidan yozilgan yoki zikr etilgan asarlar nomlarini ayting.
5. Gʻarb adabiyotshunoslari Navoiyni dastavval tarjimon-shoir sifatida tushunganlari sababini qanday izohlash mumkin?
6. Zamonaviy gʻarb navoiyshunoslaridan kimlarni bilasiz?

ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Samarqandiy Davlatshoh. Shoirlar boʻstoni ("Tazkiratu-sh-shuaro"dan) – T.: Adabiyot va sanʼat, 1967.
2. Xondamir Gʻiyosiddin binni Humomiddin. Makorimul-ahloq (Yaxshi hulqlar) / Forschadan M.Faxriddinov, P.Shamsiyev tarj.; - T.:Badiiy adabnashr., 1967.
3. Bobur Zahiriddin. Boburnoma / Hozirgi oʻzbek tiliga Vahob Rahmonov va Karomat T.: Oʻqituvchi NMIU, 2008.(Mullaxoʻjayeva tabdili.
4. Ayoziy Mirzo Muhammad Haydar. Tarixi Rashidiy. – T.: Oʻzbekiston, 2011.
5. Boyqaro Husayn. Risola: Devon. – T.: Sharq, 1995.
6. Vosifiy Zayniddin. Badoyeʼul vaqoyeʼ – Nodir voqealar / Forsiydan N.Norqulov tarjimasi. – T.: Adabiyot va sanʼat, 1979.
7. Navoiy zamondoshlari xotirasida. – T.: Adabiyot va sanʼat, 1985.
8. Sirojiddinov Shuhrat. Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy- tipologik, tekstologik tahlili. – T.: Akademnashr, 2011.

9. Alisher Navoiy ijodiy va ma'naviy merosining olamshumul ahamiyati (xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari). – T.: O'zbekiston, 2011.
10. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – T.: O'zYU Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006.
11. Hayitmetov A. Temuriylar davri adabiyoti. – T.: Fan, 1996.
12. Alisher Navoiy: 1441-1501 yil. Adabiyotlar ko'rsatkichi / Tuz. Z.Berdiyeva, A.Turopova. – T., 1991.
13. <http://www.referun.com/n/issledovanie-zhizni-i-tvorchestva-alishera-navoi-v-zapadnoevropeyskom-vostokovedenii>.